



## THEORETICAL-METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE NATIONAL CRAFTSMANSHIP

**Kuvonchbek S. Koshboyev**

*Master's student*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [khajutbekqoshboev@gmail.com](mailto:khajutbekqoshboev@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** craftsmanship, determinism, geographic determinism, possibilism, functionalism, modernism.

**Received:** 22.06.23

**Accepted:** 24.06.23

**Published:** 26.07.23

**Abstract:** there are specific methods and different theories to study the field and analyze it in depth. In the studying of national handicrafts that scientists have developed a number of methods and theories that help us to better understand handicrafts. In this article, we will see and analyze some of them.

## MILLIY HUNARMANDCHILIKKA DOIR NAZARIY - USLUBIY YONDASHUVLAR

**Quvonchbek S. Qo'shboyev**

*Magistratura talabasi*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [guvonchbekqoshboev@gmail.com](mailto:guvonchbekqoshboev@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** hunarmandchilik, determinizm, geografik determinizm, possibilizm, funksionalizm, modernizm.

**Annotatsiya:** har biri sohani o'rganish va uni chuqur tahlil etishda muayyan usullar va turli xil nazariyalar mavjud. Milliy hunarmandchilik sohalarini o'rganishda ham olimlar tomonidan bir qancha metod va nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bular hunarmandchilik sohalarini yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. Ushbu maqolamizda shulardan bir nechtasini ko'ramiz hamda tahlil qilamiz.

## ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К НАРОДНОМУ МАСТЕРСТВУ

**Кувончек С. Кошибоев**

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [khajutbekqoshboev@gmail.com](mailto:khajutbekqoshboev@gmail.com)

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** мастерство, географический поссибилизм, функционализм, модернизм.

**Аннотация:** существуют специальные методы и различные теории для изучения этой области и ее глубокого анализа. При изучении народных промыслов ученые разработали ряд методов и теорий, помогающих лучше понять ремесла. В этой статье мы рассмотрим и проанализируем некоторые из них.

### KIRISH

Hunarmandchilik o‘zining kulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik, duradgorlik kabi ko‘plab ixtisosliklariga ajralgan bo‘lib, ushbu tarmoqlarning vujudga kelishi va rivojlanishida aholining geografik joylashuvi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Oddiy misol sifatida, yaxshi va soz tuproq mavjud bo‘lgan hududlarda kulolchilik, jun va teri mahsulotlari ko‘p bo‘lgan joylarda to‘qimachilik va ko‘nchilik sohalari keng tarqalgan. Aynan mana shunday omillarning o‘rganilishi natijasida XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib fanda yangi “antropogeografiya” tushunchasi paydo bo‘ldi. York universiteti professori L.J. Peake shunday yozadi: “Antropogeografiya tushunchasi jamiyatlar tarqalishining geografik omillari, atrof-muhit va migratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, va eng muhimi atrof-muhitning jamiyat hayotidagi ta’sirini ochib berishga qaratilgandir, shuningdek ushbu atama ilk bor nemis geografi Fridrix Ratselning ikki jildlik “Anthropogeographie” (1882 va 1891) asarida qayt etilgan....”. Shuningdek, Fridrix Ratsel o‘zining ushbu antropogeografiya asarida entnografik buyumlar va ular bilan bog‘liq atamalarining geografik nuqtai nazardan boshqa hududda joylashgan xalqlar orasida tarqalishi va yoyilishini geografik joylashuvidan kelib chiqib tadqiq etishga harakat qilgan. Uning fikriga ko‘ra, bir xalqning boshqa bir xalq tomonidan bosib olinishi yoki turli irqlarning o‘zaro qo‘shilishi va xilmalixil xalqlar o‘rtasidagi savdo aloqalari natijasida madaniyatlarning yoyilishi ro‘y beradi. Bu yo‘lda moddiy madaniy ashyolar muhim ro‘l o‘ynaydi. Sababi, moddiy madaniyat ashyolari boshqa madaniyat ko‘rinishlariga qaraganda o‘zining shakli va tarqalish hududini bir muncha ko‘proq va kengroq namoyon etadi.

### ASOSIY QISM

Xalqlar hayotida sodir bo‘lgan, yuz bergan turli xil etno-ijtimoiy o‘zgarishlar yo‘qolib ketgani holda etnografik predmetlar qanday bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Darhaqiqat, millat yoki

xalqning madaniyatini yoyishda uning moddiy madaniyati, jumladan hunarmandchilik mahsulotlari muhim o‘rin tutadi. Qadimgi davrlardagi bir xalqning boshqa bir xalqni bosib olishi natijasida moddiy madaniyatlar tarqalgan bo‘lsa, bugungi, zamonaviy hayotda davlatlar o‘rtasidagi xalqaro savdo aloqalari mana shu ro‘lni bajarmoqda.

Fridrix Ratseldan boshlab geografik va hozirgi kunda keng ma’noda qo‘llanilayotgan atrof-muhit bilan bog‘liq (environmental) determinizm\* nazariyasi shakllana boshladi desak adashmagan bo‘lamiz. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu nazariyaning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Biroq, XIX asr oxiriga kelib bu nazariya geografiya sohasida keng qo‘llanila boshlanadi.

Jamiyatlarning rivojlanishida, shu jumladan hunarmandchilikning vujudga kelishi va taraqqiy etishida geografik determinizmning o‘rni va ro‘li muhimdir. Geografik omillar jamiyat hayotining ham iqtisodiy ham ijtimoiy tuzilishini belgilaydigan muhim belgidir. Geografik determinizm nazariyasiga ko‘ra, geografik va atrof-muhit bilan bog‘liq omillar nafaqat jamiyatning ijtimoiy hayot tarziga, balki ularning tashqi, fiziologik ko‘rinishlariga ham o‘zining tasirini o‘tkazadi. Darhaqiqat, inson yashab turgan muhit va tabiiy sharoitlar ularning yashash tarzi, kundalik hayotiga, shuningdek ijtimoiy taraqqiyotining o‘zgarib borishiga o‘zining ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishida tabiiy geografik muhit dastlabki muhim vazifani o‘tagan, ayniqsa Markaziy Osiyo hududlarida, sababi ushu hududdagi aholining ijtimoiy hayoti XX asrdagi Yevropa aholisining yashash tarzidan farq qilgan. Keyinchalik ushbu sohaning taraqqiy etishidagi o‘zgarishlar turli xil omillar ta’sirida bo‘lib, aholi yashash tarzining o‘zgarishi, turli xil migrantsion jarayonlar va hunarmandlarning hayot tarziga turli xil yangiliklarning jumladan, XX asrning 60-70-yillaridagi fabrika sanoat buyumlarining kirib kelishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Geografik muhitning ahamiyati hunarmandchilikning rivojida muhim ahamiyat kasb etadi, biroq geografik determinizm nazariyasi ham nuqson va kamchiliklardan holi bo‘lmagan. Deterministlar o‘zlarining nazariyasida faqat tabiatning insonga ta’sirini inobatga olishgan va insonning ham tabiatga ta’sirini, insoniyatning o‘zi uchun yangi sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni o‘ziga moslashtirishi va hatto uni o‘zgartirib yuborishini inobatga olishmagan.

Geografik determinizm nazariyasiga qarama-qarshi tarzda geografik possibilizm tarafдорлари ham paydo bo‘ladi. XIX asrga kelib ushbu nazariya keng tarqala boshlaydi. Jorj Perkins Marsh o‘zining “Inson va tabiat” asarida insoniyatning tabiatga qanchalik darajada ta’sir o‘tkazishini ochib beradi. U bilan bir davrda yashagan nemis olimi Alfred Kirchof ham o‘zining “Inson va Yer...” nomli kitobida, insoniyat va atrof-muhit o‘rtasidagi ikki tomonlama tasirini tushuntirib berishga harakat qilgan. XX asrga kelib ham ushbu nazariya tarafдорлари o‘zlarining g‘oyalarini

ilgari surishda davom etishgan. Jumladan, Jin Brunhes, Lusien Fevr, Isah Bovman, Karl Soer o‘zlarining bir qator asarlarida geografik possibilizm nazariyasini yoritib berishga harakat qilishgan. Shuningdek, hozirgi vaqtga kelib ushbu ikki nazariya: geografik determinizm va possibilizmni qo‘llab quvvatlovchi nemis va fransuz mакtablarining shakllanganligini, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalar, shuningdek, ushbu ikki nazariyaning bir biridan farqli va o‘xshash jihatlarini J. Aleksandr o‘z tadqiqotlarida sodda va oson qilib ochib bergenligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi zamonaviy jamiyatda, inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlik har qachongidan ham kuchaygan va ayniqsa tabiatning insonga emas, aksincha insonlarning tabiatga ta’siri natijasida ko‘plab voqeа va xodisalar sodir bo‘lmoqda, shunday bo‘lsada hunarmandchilikning rivojlanishida ushbu nazariya ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda har bir shaxs o‘zining o‘rni va ro‘liga egadir. XX asrda yashagan mashhur sotsiolog Emil Durkem o‘zining qarashlari orqali, jamiyat bir muhim organizm ekanligini, undagi har bir kichik detallar ham muhim ahamiyat kasb etishini, har bir narsaning jamiyatdagi o‘zi bajaradigan funksiyalari mavjudligini ochib berishga harakat qilgan. Ushbu qarashlari natijasida uni funksionalizm narzariyasining otasi deya ba’zi olimlar ham e’tirof etishgan. Emil Durkem o‘zining qarashlarida, jamiyatning har bir qatlami o‘zining funksiyalari orqali jamiyatning umumiylar barqarorligini ta’minlashini, jamiyatlar o‘rtasidaga mehnat taqsimotining yuzaga kelishi va uning asosiy vazifasi ijtimoiy hamkorlikni, shuningdek jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro barqarorlikni ta’minlashda turtki bo‘lishini o‘zining “Jamiyatda mehnatning taqsimlanishi” nomli asarida qayt etib o‘tgan.

Funksionalizm nazariyasining butun dunyo bo‘ylab katta shuhrat qozonishida polshalik olim Bronislav Malinoviskiyning xizmatlari kattadir. Malinoviskiy o‘zining “Madaniyatning ilmiy nazariyasi” asarida 27 dan ortiq olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda o‘zinining nazariyasini ishlab chiqadi. Madaniyatga ta’rif berar ekan, u dastlab moddiy ashyolarga e’tibor berish kerakligini, madaniy jarayonda har bir narsa bir-biriga bevosita bog‘liq ekanligini, biror bir buyumning shakli va uning vazifasi o‘zaro bog‘liqligini, uning shakli foydalanishdagi vazifasidan kelib chiqib yaratilishini, shuningdek, biror bir buyumni yasash va undan foydalanish insondan muayyan bilim va ko‘nikma talab qilishini va insonlar bularni jamiyatdagi huddi shu bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan insonlardan o‘rganish orqali egallashlarini qayt etadi. Shuningdek, Malinovski madaniyatni biologik ehtiyojdan kelib chiqib ta’riflar ekan, har bir narsaning o‘z funksiyasi bor, mevalar yig‘iladi, baliqlar tutiladi, hayvonlar ovlanadi, bularning asosiy funksiyasi insonning ehtiyoji, ochlik hissini to‘ydirish uchundir. Insonlar uy-joy, boshpanalar qurishadi, turli xil texnologik usullardan foydalanib buyumlar yasashadi, ularning ham ostida inson ehtiyoji yotadi va ana shu ehtiyoj insonlarni harakatga keltiradi deya o‘z fikrlarini bayon etadi. Darhaqiqat, hunarmandchilikda ham hunarmandlar tomonidan yasalgan buyumlarning o‘z vazifalari mavjud,

buyumlarning vaqt o'tishi bilan shaklu-shamoyili o'zgargan, zamonaviylashgan bo'lishi mumkin ammo, ularning funksiya hali hanuz o'zgarmagan ya'ni inson ehtiyojlarini qondirishdir.

Emil Durkemning funksionalizm nazariyasidan ilhomlangan amerikalik sotsiolog Talkot Parson jamiyatdagi har bir alohida shaxsning boshqalar bilan o'zaro aloqlari, ularga bo'lgan xatti-harakatlari va ijtimoiy ta'sirini o'zining ko'plab asarlari orqali tushuntirib berishga harakat qilgan. Durkem kabi Parson ham ijtimoiy dunyoni muayyan bir sistema sifatida ko'radi va buni ijtimoiy xatti-harakat deya nomlaydi. Aynan hunarmandchilikda, usta-hunarmandlarning o'zaro aloqalari, ustoz-shogird o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ushbu nazariyalardan foydalanish muhim natijalar berishi mumkin.

Qadimdan hunarmandchilikda, shogirdlikdan to ustozlik darajasiga ko'tarilish judayam mashaqqatli va uzoq jarayon bo'lib, shogirddan ziyraklik, sabr-bardosh talab qilingan. Hunarmandlarning istiqomat qilayotgan hududlariga qarab, shogirdlikdan ustozlik darajasiga bosqichma-bosqich ko'tarilib borishida muayyan urf-odatlar va turli xildagi diniy marosimlar amalga oshirilgan. Buday turdag'i urf-odat va marosimlarning nima sababdan amalga oshirilganligini, dinning inson va uning madaniyatidagi o'rnining muhimligini Sigmund Freydning psixologiyaga doir nazariyalar orqali tushunish mumkin. Freyd dinni ommaviy nevroz deb ataydi va din o'zining ko'p qoidalari bilan yopishqoq nevrotik holatni eslatadi. Masalan, nevrotik qandaydir harakatlarni bajarmaslikdan qo'rqa, huddi shunday haqiqiy dindor ham qandaydir diniy marosimni amalga oshirmaslikdan qo'rqa. Farqi shundaki, nevrotik o'zining doimiy takrorlanuvchi harakatlari mazmunini tushuntirib berolmaydi, dindor esa teologik bilimlaridan kelib chiqib u yoki bu marosimlarni izohlay oladi. Freydning ushbu nazariyasi hunarmandlarning amalga oshirayotgan urf-odat va marosimlari, shuningdek, insonning bir ishni bajarishdan rohatlanish hissi kabi voqe'a va hodisalarni ochib berishda muhimdir.

Hozirgi dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, barcha sohalarda, jumladan hunarmandchilikda ham ko'plab o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jamiyat taraqqiyotida shaharlarning rivojlanishi, shaharsozlikning kuchayishi, yangi texnika va texnologiyalarning yaratilishi va aholining ijtimoiy hayotiga kirib kelishi, an'anaviy usullardan foydalanib kelayotgan hunarmandlarning zamonga, texnika va texnologiyalarga moslashishi va ulardan hunarmandchilik maxsulotlarini tayyorlashda foydalanishini yoritib berishda modernizatsiya nazariyasi qo'l keladi.

Hunarmandchilik modernizatsiyasi ijtimoiy tarixiy xodisa bo'lib, u jamiyat hayotining barcha ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy va iqtisodiy sohalarini qamrab oladi. Modernizatsiya hunarmandchilikka doir islohotlarning intensivligiga emas, aksincha an'ana va zamonaviylashgan qadriyatlar qorishuvi bilan bog'liq. Modernizatsiya an'ana va qadriyatlarni inkor etmaydi, balki ular asosida olib boriladi. Bunga misol tariqasida, hunarmandchilikda sodir bo'lgan o'zgarishlar turli xil ko'rinishdagi yangicha elementlar va shakllarda namoyon bo'lib qolmasdan, buyurtma,

iste'mol va talabdan kelib chiqib kichik biznes va tadbirkorlik holatida yuzaga keladi. Darhaqiqat, hozirgi davrga kelib hunarmandchilik nafaqat milliylikni saqlash, moddiy va ma'naviy madaniyatni yoyish balki daromad manbai, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish vazifasini ham o'tamoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir sohani o'rganishda muayyan nazariy-uslubiy yondoshuvlarga tayanish, o'sha sohani yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Hunarmandchilik sohasida geografik determinizm, geografik possibilizm, funksionalizm va modernizm nazariyalaridan unumli foydalanish anchayin samaralidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A.A. Etnologiya (Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma) / A.A Ashirov, Sh. Atadjanov; Mas'ul muharrir A. Asqarov; O'zR oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Toshkent davlat pedagogika universiteti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. – 54 b.
2. Bronislaw Malinowski. A scientific theory of culture and other essays. With a preface by Huntington Cairns. A galaxy book. - New York: "Oxford university press", 1960. – P.151-152.
3. Emile Durkheim. The Division of Labor in Society. With an introduction by Lewis Coser. Macmillanpress, 1984
4. George Perkins Marsh. Man and nature. Edited, with a new introduction, by David Lowenthal. University of Washington Press. 2003.
5. Jose Alexandre de Quadros. DETERMINISM AND POSSIBILISM: A critical epistemological analysis (Geografical). Large Print. 2020.
6. Joseph, J. 2003. Emile Durkheim and Functionalism. In *Social Theory: Conflict, Cohesion and Consent*. [Online], pp. 66 – 93. Retrieved from <https://www.jstor.org/stable/10.3366/j.ctvxcrx3c.7> [accessed 10 April 2020].
7. Kirchhoff Alfred. Man and earth, the reciprocal (Relations and influences of man and his environment). Forgetton books. 2008.
8. Thomas, E. 2020. *The Development of Functionalism from Durkheim to Parsons*. [Online], pp. 1 – 8. Retrieved from ACADEMIA [accessed 20 March 2020].
9. Давлатова, Саодат. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида) тарихий-этнологик тадқиқот. - Т.: «Yangi nashr», 2008. - 18 б.
10. Отажонов М. Психоанализм асослари: Олий ўқув юртлари талabalari учун ўқув кўлланма. - Т.: Ўзбекистон, 2004. - 20 б.
11. [https://www.researchgate.net/publication/254878712\\_DeterminismEnvironmental\\_Determinism](https://www.researchgate.net/publication/254878712_DeterminismEnvironmental_Determinism)

12. [https://www.researchgate.net/publication/317850475\\_Anthropogeography](https://www.researchgate.net/publication/317850475_Anthropogeography)
13. <https://www.academia.edu/resource/work/11495420>
14. <https://www.academia.edu/resource/work/41023076>
15. [https://www.academia.edu/36077919/\\_Environment\\_Possibilism](https://www.academia.edu/36077919/_Environment_Possibilism)
16. <https://archive.org/details/in.ernet.dli.2015.126617/page/n11/mode/1up>